

## TA'LIM TURLARI VA TALIMNI TASHKIL ETISH SHAKILLARI.

Tangirova Ruxshona  
Toxirova Sadbargxon

*Denov Tadbirkorlik Pedagogika Instituti Pedagogika fakulteti Maktabgacha ta'lim yonalishi 1Mt  
23 guruh talabasi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada ta'lim to'g'risida xususan ta'limning shakllari, turlari, ma'ruba va seminar darsalrining o'ziga xosliklari to'g'risida barafsil ma'lumot berib o'tilgan.

**Kalit sozlar:** Ta'lim, maruza, seminar, talim turlari.

Ta'lim - bilim berish, malaka va ko'nikmalar hosil qilish jarayo-ni, kishini hayotga va mehnatga tayyorlashning asosiy vositasi. Ta'lim jarayonida ma'lumot olinadi va tarbiya amalga oshiriladi. Ta'lim tor ma'noda o'qitish tus-hunchasini anglatadi. Lekin u faqat turli tipdagi o'quv yurtlarida o'qitish jarayonini emas, oila, ishlab chiqarish va boshqa sohalarda ma'lumot berish jarayonini ham bil-diradi.

Ta'limning mazmuni va mohiyati jamiyatning moddiy va madaniy taraqqiyoti darajasi bilan belgilanadi. Ijtimoiy munosabatlari, umumiylar ma'lumotga bo'lgan ehtiyoj, kishilarning kasbiy tayyorgarligiga, ta'lim haqidagi pedagogik g'oyalarga qarab kishilik jamiyatni taraqqiyotining turli bosqichlarida Ta'limning mohiyati, metodi, tashkiliy shakllari o'zgarib brogan. Ta'limning maqsadi obyektiv hayot talablariga muvofiq holda o'zgarib borgani kabi, ta'limning xarakteri, yo'nalishi ham uning maqsadiga muvofiq o'z garib boradi. Ta'lim dialektik tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatlar jarayonidir.

Ta'lim bilish qobiliyatları, qistuyg'ular, idrok, shaxsni tarkib toptiruvchi kuchli omildir. Ta'lim jamiyat qurilishining muhim muammolarini hal qilish - jamiyatning moddiy-texnika bazasini yaratish, ijtimoiy munosabatlarni tarkib toptirish, yangi kishini tarbiyalashga yordam beradi.

Ta'lim bu rivojlanishning asosi, mamlakatning tayanchi hisoblanadi. Ta'limni to'g'ri tashkil etish muhim. Dars jarayonida ma'ruba va seminar darslarini maroqli olib boorish kerak. Chunki hozir rivojlangan asr yoshlari internet tarmoqlaridan ko'plab ma'lumotlar olishadi.

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universitetining ARM majlislar zalida yangi tahrirda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida" gi qonun mazmun-mohiyatini universitet jamoasi va talaba-yoshlarga yetkazish maqsadida sohaning ma-lakali mutaxassislari ishtirokida talaba-yoshlar bilan ochiq muloqot bo'lib o'tdi

Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tarti-bda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining



tashqi ifodasidir. Ta'limni tashkil etish shakli - bu o'qituvchi va o'quvchining belgilangan tarti-bda, muayyan maqsadga muvofiq ma'lum rejimda tashkil etiladigan o'quv-bilish faoliyatining tashqi ifodasidir.

Ayni vaqtida ta'limning quyidagi shakllari ajratib ko'rsatiladi: individual, individual guruhli, sinf dars, leksiya seminar va sinfdan tashqari, auditoriyadan tashqari, maktabdan tashqari

O'quvchilarni qamrab olishi, o'quvchilar faoliyatini tashkil etishi, jamoaviy va individual shakllarining nisbatlari, mustaqilligi darajasi va o'qish jarayoniga rahbarlik qilish xususiyatlari kabi belgilariga ko'ra quyidagi uch asosiy turga ajratiladi individual; sinf dars; ma'ruza seminar.

O'qituvchilar ma'ruza darslarini gruhlarga bo'lib turli xil o'yinlar tashkil etib o'tishlari mumkin . Ko'p hollarda seminar darslariga individual yondashiladi. Ta'limni tashkil etish shakllari: An'anaviy ta'lim shakli, noan'anaviy ta'lim shakli va yordamchi ta'lim shakli. Dars - (mактабдаги) o'quv ishining asosiy tash-kiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarn ing doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilmaxil metodlardan foydalanad bo'lib turli xil o'yinlar tashkil etib o'tishlari mumkin . Ko'p hollarda seminar darslariga individual yondashiladi.

Ta'limni tashkil etish shakllari: An'anaviy ta'lim shakli, noan'anaviy ta'lim shakli va yordamchi ta'lim shakli. Dars - (mактабдаги) o'quv ishining asosiy tash-kiliy shakli bo'lib, unda o'qituvchi aniq belgilangan dars doirasida o'quvchilarn ing doimiy tarkibi bilan qat'iy jadval bo'yicha shug'ullanadi, jamoaviy bilish faoliyatiga rahbarlik qilib, o'quv dasturiga o'zi belgilaydigan didaktik va tarbiyaviy vazifalarga erishish uchun xilmaxil metodlardan foydalanadi Hozirgi kunda burlarda 3 tasi yani rivojlantirish darslari, mashg'ulot darslari va ya'ni qayta ko'rib chiqish darslari asosiy qilib ko'rsatilgan.

Xulosaga kelsak, ta'lim juda muhim soha hisoblanadi u mamlakatning buguni, ertasi va kelajagidir. Ta'limni to'g'ri va mazmunli, maroqli tashkil etish muhim. Ma'ruza va seminar darslarini noodatiy tashkil etish metodlarini izlash juda muhim.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezident Shavkat Mirziyoyev 2020 yil 23 sentabr kuni mazkur Qonunni
2. Pedagogika. X. Ibragimov, Sh. Abdullaeva. -Toshkent, 2007.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. R. Mavlonova va boshqalar. - Toshkent, fan va texnologiya. 2010

